

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
XITOIY FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Xitoy va o`zbek tili undosh tovushlarining qiyosiy tahlili”

Bajardi: Xitoy filologiyasi kafedrası IV kurs
talabasi Akbarova N.M.

Ilmiy rahbar: Xitoy filologiyasi kafedrası
o`qituvchisi Mavlyanova U.X.

Ilmiy maslahatchi: Xitoy filologiyasi kafedrası
katta o`qituvchisi, f.f.n. Nosirova S.A.

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I.BOB. Xitoy tilida undosh tovushlar tasnifi.....	7
1.1. Tilshunoslikning fonetika bo`limi haqida umumiy ma'lumot.....	7
1.2. Xitoy tilida jarangli undoshlar tasnifi.....	17
1.3. Xitoy tilida jarangsiz undoshlar tasnifi.....	21
II BOB. Hozirgi o`zbek adabiy tili undoshlari.....	28
2.1 O`zbek tilida undoshlar tasnifi.....	28
2.2 Xitoy va o`zbek tilida undosh tovushlar, ularning farqi va o`xshashliklari.....	36
XULOSA	45
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	48
ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Hozirgi paytda xorijiy tillarni oʻrganish va oʻrgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Jahon hamjamiyatidan oʻziga munosib oʻrin egallashga intilayotgan malakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda oʻz buyuk kelajagini koʻrayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yoʻqdir”, “Oʻzbekiston Xitoy timsolida mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan bizni qoʻllab-quvvatlab kelayotgan ishonchli, buyuk qoʻshni va hamkorni koʻradi”¹. Shu sababli Oʻzbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Xitoy Xalq Respublikasi bilan boʻlgan aloqalar alohida ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda dunyodagi Uzoq Sharq mintaqasining yirik mamlakatlaridan biri Xitoy tilini, uning tarixini, madaniyatini, xalq hayotini oʻrganishda hukumatimiz tomonidan koʻplab chora tadbirlar koʻrib kelinmoqda va bu Oʻzbekistonda xitoyshunoslarni, til mutaxassislarini, oʻqituvchi va tarjimonlarni yetkazib chiqarishga eʼtibor kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishimiz xitoy va oʻzbek tillaridagi undoshlar tahliliga bagʻishlanadi. Oʻzbekistonda xitoy tili grammatikasiga oid koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xitoy tilini oʻrganishda va oʻqitishga ushbu mavzuni yanada kengroq yoritilish kerakligini taqozo etmoqda. Mazkur ishimiz xitoy tilini oʻrgatish mabayonida avvalo tilning fonetikasini oʻzlashtirish uchun yordam beradi. Chunki oʻqitish jarayonida talabalarga oʻz ona tili bilan solishtirilgan holda tushuntirilsa oʻquv jarayonining salohiyatini oshiradi hamda talabalar uchun ham oʻzlashtirish va tushunib olishda qulaylik yaratadi degan umiddamiz.

Tadqiqot ob’yekti. Xitoy va oʻzbek tillarida fonetikasining muhim qatlamini tashkil etuvchi undosh tovushlar tadqiqotimizning asosiy obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Xitoy va oʻzbek tillaridagi undoshlarning tasnifi ularning joylashish oʻrni hamda talaffuz qilish qoidalari va oʻzbek va xitoy tillaridagi maʼlum bir undoshlarning farqlari tadqiqot predmetini belgilab berdi.

¹Karimov I. A. Barkamol avlod –Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq”.1997. – B.185.

Ilmiy ishning maqsadi. Zamonaviy xitoy tili undoshlar tizimini o'rganib chiqish va uning qiyosiy tahlilini amalga oshirish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** amalga oshirildi:

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston va Xitoy xalqlarining o'zaro aloqalar tarixi bir necha ming yilliklar qa'ridan boshlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu aloqalar hozirgi zamon talablariga mos holda rivojlanib bormoqda. Xitoy tili grammatikasiga oid manbalar soni nihoyatda cheksiz, ularning orasida o'zbek xitoyshunoslarining izlanishlari va olib borgan ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Masalan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Karimov Akram Abilevich tomonidan yaratilgan "Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari"² (Toshkent 2001 y), Sh.Xidoyatova va A.A. Karimov tomonlaridan yaratilgan "Xitoy tili grammatikasi"³ (Toshkent 2004y) asarlarida xitoy tilidagi undoshlar fonetikasi xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan, chuqur o'rganilgan. Bundan tashqari, f.f.n. dotsent S.A.Hoshimova va f.f.n. S.A.Nosirovalarning "Xitoy tili grammatikasi"⁴, L.Sultonova, filologiya fanlar nomzodi dotsent J.Ziyomuhamedov, siyosiy fanlar nozmodi I.Bekmuratov, Aminov E., Maxmudxodjaev va boshqalarning ilmiy fikr va mulohazalari juda katta ahamiyatga egadir.

Tadqiqot manbalari. Xitoy tilshunoslari Li Dejin va Cheng Mei Zhen "使用汉语语法" ("Shǐyòng hànyǔ yǔfǎ" – "Xitoy tilining amaliy grammatikasi") va Dai Xu Mei, Zhang Ruo Bao ham muallifligi ostida nashrdan chiqqan "使用汉语语法三百点" ("Shǐyòng hànyǔ yǔfǎ sānbǎidiǎn" – "Xitoy tili grammatikasining 300 xususiyati") va o'zbek xitoyshunoslari filologiya fanlari nomzodi, dotsent Karimov Akram Abilevich tomonidan yaratilgan "Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari" (Toshkent 2001 y), Sh.Xidoyatova va A.A. Karimov tomonlaridan yaratilgan

² Karimov A.A. Xitoy tilining grammatik birliklari-Toshkent.2001.

³Karimov A.A. Xitoy tili grammatikasi.-Toshkent.2004.

⁴ S.A.Hoshimova. S.A.Nosirova Xitoy tili grammatikasi-Toshkent.2011.

“Xitoy tili grammatikasi” (Toshkent 2004y) asarlarida, L.Sultonova, filologiya fanlar nomzodi dotsent J.Ziyomuhamedov, siyosiy fanlar nomzodi I.Bekmuratovlarning ilimiy fikr va mulohazalari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.

- Ilk marotaba xitoy tili va o'zbek tili fonetikasidagi undosh tovushlar solishtirilib, qiyoslandi.

- Ikki sharq tilidagi undoshlarning xususiyatlari hamda farqli jihatlari o'rganib chiqildi;

- Ikki til o'zaro taqqoslandi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. BMI doirasida bajarilgan mazkur ishning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki:ishimizda xitoy va o'zbek tillaridagi undosh tovushlarning xususiyatlari tahliliy usul orqali o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ish materiallaridan xitoy va o'zbek tillari grammatikasiga oid maxsus kurslarda, talabalarga xitoy tilini o'rgatish jarayonida, xitoy va o'zbek tillariga oid qo'llanma hamda darsliklar tuzishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodlari.Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun to'plangan ma'lumotlar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo'llanilayotgan struktural, tavsifiy, tahliliy, miqdoriy, chog'ishtirish metodlari yordamida tahlil etildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, har bir bobning mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki bo'limlar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, obykti, predmeti, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Birinchi bob “Xitoy tilida undosh tovushlar tasnifi” deb nomlanib, u uch bo'limdan iborat. Unda fonetika bo'limi haqida ma'lumot, xitoy tilida jarangli va

jarangsiz undoshlar haqida soʻz yuritiladi. Ikkinchi bob “Hozirgi oʻzbek adabiy tili undoshlari” deb nomlanib, unda oʻzbek tili undoshlari hamda xitoy va oʻzbek tili undoshlari farqli va oʻxshashliklari koʻrib chiqilib qiyosiy tahlil qilingan.

Xulosada xitoy oʻzbek tillarida undoshlarning ularning har biriga alohida toʻxtalib oʻtilib tahlil qilindi. Ikki til oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlar koʻrib chiqildi. Shuningdek malakaviy ishimiz foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat.

I BOB. XITOIY TILIDA JARANGLI UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

Ushbu bobda biz Xitoy tili tarixi uning kelib chiqishi, hamda tilshunoslikdagi fonetika va tovushlar haqida ma'lumot keltirib, xitoy tilining og'zaki nutqidagi undosh tovushlar tasnifi bilan tanishib chiqildi.

1.1. Tilshunoslikning fonetika bo'limi haqida ma'lumot

Tilshunoslik eng qadimiy fanlardan hisoblanib, uning o'ziga xos tarixiy yo'li mavjuddir. Tilshunoslik har bir tilga oid fandır, biz tilshunoslik qonun-qoidalarini bilmay turib, biron bir tilni o'rgana olmaymiz. Chunki tilshunoslik fani o'z nomi bilan til- ya'ni qaysi mamlakat tili yoki qaysi davr tili bo'lmasin, uni o'z ichiga oladi va qamrab olgan holda o'rganadi. Ma'lum bir tilning kelib chiqishi tarixi, rivojlanish bosqichlari shu kabi ma'lumot va bilimlarni biz tilshunoslik fanidan olamiz. Bugungi bitiruv malakaviy ishimizning mazmuni ham tilshunoslikning muhim bo'limlaridan bo'lgan fonetika bo'limiga taaluqlidir. U hoh o'zbek tili, hoh xitoy tili bo'lsin, biz ikkala tildagi undoshlar tasnifini tilshunoslik fani orqali tahlil qilamiz va qiyoslab taqqoslaymiz. Endilikda biz avvalo Fonetika nima ekanligini va u nimalarni o'rganishini bilib olishimiz lozim.

Tilshunoslikning fonetika bo'limi: Fonetika grekcha phone "tovush", tika "ta'limot ya'ni tovush haqidagi ta'limot demakdir."⁵ Nutq tovushlarini tekshiradigan, o'rganadigan tilshunoslikning bir bo'limi fonetika deyiladi. Muayyan ma'noda fonetika tildagi tovushlar tizimini, ularning hosil bo'lish va o'zgarish qonuniyatlarini, so'zlarni ajratishdagi o'rnini tekshiradi. Shuningdek, fonetikada urg'u, bo'g'in kabi hodisalar ham o'rganiladi.

Inson tili tovush tilidir. Nutq tovushlari til uchun moddiy manba hisoblanadi. Fikr gap orqali ifodalanadi, gap esa so'zlardan tashkil topadi, so'zlar nutq tovushlaridan tuziladi. Masalan, biz huquqiy demokratik jamiyat qurmoqdamiz so'zlari biz, b, i, z; huquqiy, h, u, q, u, q, i, y; demokratik, d, e, m, o, k, r, a, t, i, k, jamiyat, j, a, m, i,

⁵Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent. 2005. - B. 13.

y, a, t; qurmoqdamiz, q, u, r, m, o, q, d, a, m, i, z kabi shakllardan tashkil topgan. Bugungi kunda fonetikaning turli hil turlari mavjud.

Tekshirish usuliga ko`ra fonetikaning turlari

Fonetika tovushlarni tekshirish usuliga ko`ra bir necha turlarga bo`linadi.

Umumiy fonetika. Nutq tovushlarining nazariy masalalari, ohang urg`uning tabiati, bo`g`in tuzilishi, tilni tovush tomonining grammatik tizimiga munosabati kabi masalalari o`rganiladi.

Xususiy fonetika. Aniq bir tilning (masalan, o`zbek tili, xitoy tili) nutq tovushlari, urg`usi bo`g`in tuzilishi, ohang tomoni kabi masalalar o`rganiladi.

Tarixiy (diaxron) fonetika. Tovush tizimidagi taraqqiyot va o`zgarishlarni o`rganadi.

Tasviriy (sinxron) fonetika. Ma'lum bir davrdagi muayyan birorta tilning (masalan, o`zbek tili yoki xitoy tili) tovushlar tuzilishini o`rganadi.

Eksperimental fonetika. Tildagi tovushlarning artikulyatsiyasi va akustik tomonini ma'lum asboblardan orqali tekshiradi va boshqalar.⁶

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek fonetika tovushlar va ularning hosil bo`lishini o`rganar ekan, tovush ma`no anglatuvchi yoki ma`no anglatmaydigan bo`lishi mumkin. Ma`no anglatuvchi tovushlar nutq tovushlari deyiladi. Nutq tovushlari nutq a`zolaridan chiqadi. Nutq a`zolarining birgalikdagi faoliyati orqali bir-biriga o`xshash bo`lmagan nutq tovushlarini hosil qiladi. Nutq a`zolari quyidagi qismlardan iborat:

1. yuqori lab
2. yuqori tish
3. yuqori tish milki
4. qattiq tanglay
5. yumshoq tanglay
6. kichik til

⁶Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O`zbek tili. - Toshkent. 1998. B. 12-14.

7. pastkim lab
8. pastki tish
9. til uchi
10. til usti
11. til orqasi
12. tovush pardasi⁷

Nutq tovushlarining uch jihati:

Nutq tovushlarining uch jihati bor: fiziologik (artikulatsiya-talaffuz) jihati, akustik (eshitilish) jihati va lingvistik (funksional-ma'no) jihati.

Fiziologik (artikulatsiya) ya'ni talaffuz jihati. Nutq a'zolarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati artikulatsiya deyiladi. Bunda ikki narsa farqlanadi; 1) artikulatsiya o'rni, 2) artikulatsiya usuli.

Nutq tovushlarini hosil qilish paytida :u yoki bu nutq a'zolarining faol qatnashgan qismi artikulatsiya o'rni deyiladi. Masalan: l, n, z, s, d, kabi tovushlarni hosil qilishda tilning old qismi va ularning milkka yaqinlashuvi ko'proq kuzatiladi. Shuning uchun bunday tovushlarning artikulatsiya o'rni til oldidir.⁸

Tovush hosil bo'lish paytida ikki nutq a'zolarining bir-biri bilan jipslashuvi yoki jipslashmay orada havoning o'tib ketishi uchun bo'shliq qolishi artikulatsiya deyiladi. Masalan: b, m, p, tovushlari aytilganda lablar bir-biriga jipslashadi va so'ng havo lablarni yorib portlab chiqadi.

Akustik (eshitilish) jihatidan tovush biror jismning boshqa bir jism ta'sirida tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladigan ovozdan, nutq a'zolarida hosil bo'ladigan shovqindan iboratdir.

Eshitilishi jihatidan tovushning balandlik kuchi tembri va cho'ziqligi farqlanadi. Tovushning balandligi tebranish miqdoriga bog'liq, agar tebranish

⁷Karimov.A. Xitoy tili grammatikasi. "Fan va texnologiya".-Toshkent., B-9.

⁸RahimovS., Umarqulov B..Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent.2001.-B.13.

qancha ko'p bo'lsa tovush shuncha baland bo'ladi yoki aksincha tebranish kam bo'lsa tovush shunchalik past bo'ladi.

Nutq tovushlarining kuchi tebranishning shiddatiga bog'liqdir. Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli chiqadi. Tovushning kuchi o'pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq a'zolariga qanday kuch(zarb) bilan urilishiga bog'liq.

Lingvistik (ma'no) jihatdan.Nutq tovushlarini birlashtiruvchi yoki ularni farqlovchi belgilari haqida ma'lumot berildi.Tovushlarning ma'no (funksional) tomoni deyilganda ularning so'zda ma'no farqlash xususiyati tushuniladi. Masalan: *bir, bor, bar, bo'r* kabi so'zlar uch tovushdan tashkil topgan bo'lsa ham e, u, a, o, o' kabi unlilar ma'no farqlaydi, demak ular fonema sanaladi. Tovushlarning so'zda ma'no farqlovchi xususiyati fonema uchun asosdir.

Nutq tovushlari va ularning tasnifi.

Nutq a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan tovushlar nutq tovushlari deyiladi. Nutq tovushlari, birinchidan, bo'g'iz bo'shlig'ida tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladigan ovozdan ikkinchidan, og'iz bo'shlig'ida nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqindan iborat.

Demak, nutq a'zolarining ishtiroki hamda ovoz va shovqin o'rniga ko'ra nutq tovushlari ikki turga bo'linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar.⁹

Unli tovushlar talaffuz etilganda o'pkadan chiqadigan havo oqimi to'siqqa uchramay chiqadi va ovozdan hosil bo'ladi.

Undosh tovushlar esa o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqlarga uchrashi natijasida shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Undosh tovushlarni aytganda ovoz qatnashishi ham qatnashmasligi ham mumkin. Bu esa o'pkadan chiqayotgan havo oqimining bo'g'iz bo'shlig'ida joylashgan ovoz paychalarini tebratish-tebratmasligi bilan bog'liqdir. Og'zaki nutqimizda tovush anashu tovush paychalari yordamida hosil boladi va bu so'zlovchining nutqini

⁹Rasulov I. O'zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent.1981.B-18.

ravon va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi¹⁰. Bundan tashqari fonetikaga urg'u bo'g'in undosh va unli harflar ham kiradi.

¹⁰Jamolxonov N..Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.2005.-14.b.

Bo`g`in .

Bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovush bo`g`in deyiladi. So`zlarni talaffuz etganimizda o`pkadan chiqayotgan havo oqimi muayyan oraliqda bo`linib-bo`linib, goh kuchli, goh kuchsiz zarb bilan o`tadi va u bo`g`inni hosil qiladi. Masalan, bolalar so`zida uch bo`g`in bor: bo-la-lar. Birinchi, ikkinchi bo`g`inlar ikkita tovushdan, uchunchi bo`g`in esa uch tovushdan taslikil topgan. O`zbek tilida bo`g`inlarning soni so`z tarkibidagi unli tovushlar miqdoriga bog`liq, ya'ni so`zda nechta unli bo`lsa bo`g`inlar ham shuncha bo`ladi. Ayrim bir unli tovush ham mustaqil bo`g`in bo`la oladi, ammo undosh tovush yakka holda bo`g`in bo`la olmaydi, faqat undoshlar unlilar bilan birgalikda bo`g`inni tashkil qiladi.

Urg`u va uning turlari.

So`z bo`g`inlaridan biri yoki gap tarkibidagi bo`laklardan birining boshqalariga qaraganda cho`ziq (kuchliroq) ovoz yoki ohang bilan talaffuz qilinishi urg`u deyiladi. Urg`u tushgan bo`g`in urg`uli bo`g`in hisoblanadi, urg`u odatda, unli tovushga tushadi. Masalan: <<daraxtlar kurtak chiqara boshladi>>. Urg`u o`z sifatiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) so`z urg`usi; (yoki leksik urg`u), 2) gap urg`usi (yoki logik urg`u). So`z bo`g`inlaridan biriga tushadigan urg`u so`z (leksik) urg`u deyiladi. Masalan: bola, lola, kitob, ishchilar, talabalar, mulkdor. So`zlarga qo`shimchalar qo`shilishi bilan urg`u ham shunga mos holda ko`chadi.

Masalan: g`alla -g`allakor, paxta-paxtakor.

Ko`pgina so`zlarda urg`u oxirgi bo`g`inda bo`lgani uchun o`zbek tilining so`z urg`usi bog`liq urg`u sanaladi.

Nutq tovushlarining o`zgarishi.

Nutq jarayonida so`z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o`zaro ta'siri natijasida ro`y beradigan o`zgarish tovush o`zgarishlari deyiladi. Masalan: tovushlar yakka holda emas, balki so`z tarkibida ma'lum bir tartibda joylashgan holda talaffuz etiladi.

Bu esa tovushlarni turli o'zgarishlarga olib keladi. Masalan: universitet so'ziga o'rin kelishigi qo'shimchasida, chiqish kelishigi qo'shimchasidan qo'shilganda so'z oxiridagi (t) tovushi qo'shimchasidagi (d) undoshiga ta'sir qilib, uni (t-ga) aylantiradi; yozilishi universitetda, universitetdan = aytilishi universitetta, universitetan kabi.

Tovush o'zgarishlari ikki turga bo'linadi: a) kombinator o'zgarishlar; b) pozitsion o'zgarishlar.

Talaffuz paytida so'z tarkibidagi u yoki bu tovushning o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan o'zgarish kombinator o'zgarish deb yuritiladi.

Kombinator o'zgarishlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) assimilatsiya; 2) dissimilatsiya;¹¹ 3) metateza.

Assimilatsiya-lot. o'xshashlik degan ma'noni anglatadi. So'z tarkibidagi noo'xshash tovushlarning talaffuz jarayonida o'xshab ketishi assimilatsiya deyiladi. Masalan, (o'tni > o'tti; tn>tt; ishchi) ichchi; sh> ch) ch>ch; aytdi aytti td> tt, uch-so'm > ussom; ch, > ss va boshqalar.

Assimilatsiya hodisasi o'xshatish xususiyatiga ko'ra: 1) pro-gressiv assimilatsiya so'z tarkibidagi oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatib oladi: otdan> ottan ; tilakga > tilakka, kg> kk, otni> otti, tn> tt; 2) regressiv assimilatsiya so'z tarkibidagi oldingi tovushni keyingi tovush o'ziga o'xshatib oladi.

Assimilatsiya tovushlarning butunlay yoki qisman o'xshab qolishiga ko'ra ikki xil: a) to'liq va b) to'liqsiz assimilatsiya a) to'liq assimilatsiyada so'z tarkibidagi noo'xshash tovushlar talaffuz jarayonida butunlay bir-biriga o'xshab qoladi; to'kkan. to'kkan: kg> kk; ishchi- ichchi shch> chch, sizni, sizzi, zn> zz, bizni, bizzi kabi; to'liqsiz assimilatsiya noo'xshash tovushlar qisman bir-biriga o'xshab ketadi; toshishgan> toshkan. shg> shk, mazkur, maskur; zk> sk, toshgan, toshkan, shg, shk kabi.

Dissimilatsiya -lot. dissimilatis so'zidan <<noo'xshashlik>> demakdir. So'z tarkibidagi o'xshash undoshlarning talaffuz paytida bir-biriga o'xshamay qolishi dissimilatsiya deyiladi. Masalan: zarar, zaral, zarur, zaril, rr> rl hodisasi yuz

¹¹ B.Mengliyev. U.Holiyorov. O'zbek tilidan urversal qo'llanma.-Toshkent.,2007-B.23

bergan.

Bu hodisa ham ta'siriga oluvchi tovush o`rniga ko`ra ikki xil: a) progressiv dissimilatsiyada ikkita o`xshash tovushnuig keyingisi oldingisiga o`xshamay qoladi: birorta, bironta; b) regressiv dissimilatsiyada esa oldingi tovush keyingisiga o`xshamay qoladi: direktor, dilektor. koridor, kolidol.

Metateza—lot. metatez—"o`rin almashtirmoq" demakdir. Nutq jarayonida so`z tarkibidagi tovushlarning o`rin almashtirish hodisasi metateza deyiladi. Masalan, qayroq> qayroq; yomg`ir> yog`mir, uch>ru mq>g`n. Bu hodisa zamon munosabatiga ko`ra ikki xil: a) diaxron(tarixan almashuv ) sarimsoq> samirsoq. aylan> aynal; b) sinxron (hozirgi holat) to`g`ri, torg`i, ahvol, avhol kabi. Almashinuvchi tovushlarning joylashuviga ko`ra ikki xil: a) kontakt (yonma-yon tovushlar) o`hshaydi, o`xshaydi, to`g`ra> to`rg`a; b)distakt (tovushlar va bo`g`inlar almashinish) aylana> aynala, sarimsoq>samirzoq va boshqalar. Pozitsion o`zgarishlar. Tovushning so`zdagi o`rni urg`uli yoki urg`usiz bo`g`inga kelish bilan bog`liq o`zgarishlar pozision o`zgarishlar deyiladi.¹²

Xitoy tili — xitoy-tibet tillari oilasiga mansub tillardan biri. XXRning rasmiy davlat tili. Unda XXRning 92% aholisi — 1 mlrd. 292 mln.dan ortiq kishi so`zlashadi Xitoy tili shuningdek, Indoneziya, Kambodja, Laos, Vyetnam, Myanma, Malayziya, Tailand, Singapur, Bruney, Syangan, Aomin, Filippin, Yaponiya, Koreya va dunyoning boshqa mamlakatlarida tarqalgan (30 mln.dan ortiq kishi so`zlashadi). BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri.

Xitoy tilida asosan, 7 lahja guruhi farqlanadi: 1) shim. (bu lahjada 70% kishi so`zlashadi va u hoz. adabiy Xitoy tiliga asos bo`lgan); 2) u; 3) syan; 4) gan; 5) xakka; 6) yue; 7) min. Bu lahjalar fonetik va leksik jihatdan o`zaro katta farq qiladi, hatto lahjalarning vakillari bir-birlarini tushunmay qoladilar; biroq ularning grammatik qurilishi va lug`at tarkibi yagonadir. Lahjalar muntazam tarzda

¹² M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov.O`zbek tili.-Toshkent.,1998.-B.14-17.

tovushiy mosliklar orqali o'zaro bog'langan. Xitoy tilining fonetik me'yorlari Pekin shahri talaffuziga asoslanadi.

Xitoy tiliga oid qadimiy yozma yodgorliklar (tosh, bronza, suyak va b.ga yozilgan yozuvlar) mil. av. 2-ming yillikning 2-yarmiga oid. Qadimiy adabiy yodnomalar — "Shutszin" ("Tarix kitobi") va "Shitszin" ("Qo'shiqlar kitobi") mil. av. 1-ming yillikning 1-yarmiga oid. O'sha davrdagi jonli lahjalar asosida qadimiy adabiy Xitoy tili. — venyan vujudga kelgan. Keyinchalik u og'zaki jonli tildan uzoqlashib, mil. 1-ming yillikda xalq tushunmaydigan til bo'lib qolgan. Shu sababli mil. 1-ming yillikda yangi (sodda) yozma til — bayxua vujudga keladi; shim. bayxua tili keyinroq umumxalq Xitoy tili — putunxua (umumxalqqa tushunarli til) uchun asos bo'ldi. 20-a.ning 1-yarmida putunhua qadimiy Xitoy tili — venyanni tamoman siqib chiqarib, yagona milliy til bo'lib qoldi.

Xitoy tilidagi morfema va sodda so'zlar odatda bir bo'g'inlidir. Bo'g'in tarkibiga kiruvchi undosh va unli tovushlar (ularning soni haqida hanuz yagona fikr yo'q) ma'lum bir tartibda joylashadi. Masalan, bir necha undosh tovush ketma ket kelishi mumkin emas, biroq unlilar ketmaket, o'zaro birikib kelishi mumkin. To'liq tarkibli xitoy bo'g'inida birinchi o'rinda hamisha undosh tovush turadi, ikkinchi o'rinda 1unli, undan keyin 2unli, oxirida esa yarim (kuchsiz) unli yoki burun tovushi joylashadi. Qat'iy tartibga qaramasdan Xitoy tilida bo'g'in tarkibiga kiruvchi tovushlarning hammasi ham bir-biri bilan birika olmaydi, shuning uchun xitoy bo'g'inlarining miqdori chegaralangandir. Putunxuada 414 bo'g'in, ton (ohang—musiqiy ovoz) variantlarini hisobga olganda, 1324 bo'g'in bor. Xitoytilida ton (ohang), tovushga o'xshab, ma'no farqlash vazifasini bajaradi (q.Tonal tillar). Agar bir bo'g'in 4 xil ton bilan talaffuz etilsa, 4 ta har xil ma'noli so'z hosil bo'ladi.

Xitoy tilida bir bo'g'inli so'zlarga nisbatan ikki bo'g'inli so'zlar ko'proq. Terminologiyaning rivojlanishi natijasida ikkidan ortiq bo'g'inli so'zlar ham ko'paymoqda. So'z yasalihi so'z qo'shish, affiksatsiya va konversiya (bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tish) orqali amalga oshadi. So'z yasash

qoliplari soʻz birikmalari qoliplariga oʻxshash boʻlganligidan baʼzan yasama, qoʻshma soʻzlarni soʻz birikmalaridan ajratib olish qiyin.

Xitoy tilida deyarli oʻzlashma soʻzlar yoʻq. Oʻziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Xitoy tili, asosan, amorf tillardan boʻlsada, ayrim hollarda agglyutinativ belgilar ham uchraydi. Xitoy tili iyeroglifik yozuvdan foydalanadi.

Xitoy tili (汉语/漢語, pinyin: Hànyǔ; 华语/華語, Huáyǔ; yoki 中文, Zhōngwén) - Xitoy-Tibet oilasiga kiruvchi til. Xitoy Xalq Respublikasi, Tayvan, Gang Kong, Makau va Singapurning rasmiy tili. Bugun Xitoy tilida 1.136 milyard kishi soʻzlashadi.¹³

¹³ http://uz.wikipedia.org/wiki/Xitoy_tili

1.2 XITOIY TILIDA JARANGLI UNDOSHILAR TAVSIFI

Nutq tovushlari o`z birligi bo`yicha ayrim-ayrim aytiladi. Masalan , “renmin rebao” degan so`z birkmasi to`rtta birlik bo`lib aytiladi. Nutq tovushlaring ana shunday tabiiy birligi, yani yagona fanetik birligni hosil qiluvchi bir yoki bir nechta tovshlardan iborat eng kichik birligi bo`gin deb ataladi.

Xitoy yozuvida bitta iyeroglif bitta bo`g`inga to`g`ri keladi. Odatda bir bo`g`in ikki qismga bo`linadi. Bo`g`in boshidagi undosh tovush “shenmu” Undan keying bo`lagi “yunmu” deb ataladi. Yunmu unli tovush yoki unli tovush bilan <<n>>, <<ng>>dan tuziladi. Masalan <<da>> degan bo`g`inni olsak ,<<d>>tovushi shenmu <<a>>yunmu xisoblanadi. <<ren>> degan bo`g`inda <<r>> shenmu <<en>>yunmu bo`ladi. Shenmu yoki yunmu bo`lishidan qat`iy nazar tovushlarning hammasi transkripsiya harflari bilan ifodalanadi. Transkripsiya harflari quyidagi jadvalda berilgan:

Bosma harf	Yozma harf	Bosma harf	Yozma harf
Aa	<i>Aa</i>	Nn	<i>Nn</i>
Bb	<i>Bb</i>	Oo	<i>Oo</i>
Cc	<i>Cc</i>	Pp	<i>Pp</i>
Dd	<i>Dd</i>	Qq	<i>Qq</i>
Ee	<i>Ee</i>	Rr	<i>Rr</i>
Ff	<i>Ff</i>	Ss	<i>Ss</i>
Gg	<i>Gg</i>	Tt	<i>Tt</i>
Hh	<i>Hh</i>	Uu	<i>Uu</i>
Ii	<i>Ii</i>	Vv	<i>Vv</i>
Jj	<i>Jj</i>	Ww	<i>Ww</i>
Kk	<i>Kk</i>	Xx	<i>Xx</i>
Ll	<i>Ll</i>	Yy	<i>Yy</i>
Mm	<i>Mm</i>	Zz	<i>Zz</i>

Masalan <<ba>> ,<<ta>>, <<ni>> bo'g'inlarida << b, t,n>>lar shenmu <<a.i>>lar yunmu deb ataladi. Ikki, hatto ikkitadan ortiq harflar bilan ifodalanadigan shenmular va yunmular ham bo'ladi. Masalan, <<zhong>> degan iyeroglifdagi shenmu <<zh>> xisoblanadi. Shenmu yunmular harf orqali ifodalanadi. Shenmu bilan yunmu yoki yunmu bilan yunmuning qo'shilishidan bo'g'in hosil bo'ladi. Bu bo'g'inlarning o'qilishi xitoycha iyerogliflarni og'zaki ifodasi bo'ladi. Shenmular o'z oldiga bo'g'in bo'la olmaydi. Biroq yunmular o'zi bo'g'in bo'la oladi. Shenmu bilan yunmu bo'g'inning tarkibiy qismi, harf esa shenmu bilan yunmu belgisidir. Harf ,shenmu, yunmu va bo'g'in o'rtasidagi munosabatlar mana shulardan iboratdir.

Hozirgi zamonaviy xitoy adabiy tilida (Putunhua)da 39ta yunmu 21ta shenmular mavjud. 39 yunmu shenmular bilan birgalikda bir bo'g'in yoki so'zni hosil qiladi. ¹⁴Yunmular 4 turga bolinadi:

Turi Farqi	<I, u, u> Bilan boshlangan yunmu	<i> bilan boshlangan yunmu	<u> bilan boshlangan yunmu	<ü> bilan boshlangan yunmu
yakka yunmu		I	u	ü
	a	Ia	ua	
	o		uo	
	e	Ie		üe
qo'shma yunmu	ai		uai	
	ei		uei	
	ao	Iao		
	ou	Iou		
burun(di moq) yunmu	an	Ian	uan	üan
	en	In	uen	ün
	ang	Iang	uang	
	eng	Ing	ueng	

¹⁴ .A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya", - B.28.

	ong	Iong		
til qayrilma	er			

21 ta shenmularni ikki katta guruhga bo'lamiz. Ular: jarangli va jarangsiz undosh tovushlardir. Endilikda jarangli undoshlar bilan tanishib chiqamiz:

Ular:

L(l) til uchi tovushi yon tomon tovushi. Bu tovushni talaffuz qilganda, til uchi tepa tishining milkiga taqalib <p> tovushini chiqarish vaqtidagi o'rnidan ozgina orqasiga tortiladi. Havo oqimi tiling ikki yon tomonidan chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Masalan: <lai, lei, long> kabilar.¹⁵

M(m)-qo'sh lab tovushi-nafassiz dimog` (burun) tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda, lab yumiladi, yumshoq tanglay bilan kichik til pastga tushib, havo oqimi burun bo'shlig'idan chiqadi. Tovush pardasi titraydi. <mao, mou, meng> bo'g'inlar misolida tekshirishimiz mumkin.¹⁶

N(n)- til uchi tovushi-burun tovushi. Bu tovush talaffuz qilganda til uchi tepa tishning uchiga taqaladi. Yumshoq tanglay va kichik til pastlab, burun bo'shlig'iga yo'l ochadi. Tovush pardasi titraydi. Masalan: <nai, nan, nong> kabi bo'g'inlar.¹⁷

R(r) til uchi orqa jarangli tovush. <sh>ga o'xshash holda talafuz qilinadi lekin havo oqimi kuchsiz sirg'alib chiqadi. Masalan: <rou, ran, re > va boshqalar.¹⁸

¹⁵ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.13.

¹⁶ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.12.

¹⁷ O'sha manba.-B.13.

¹⁸ O'sha manba.-B.15.

1.3 XITOY TILIDA JARANGSIZ TAVUSHLAR TASNIFI

Xitoy tilida jarangsiz tovushlar jarangli tovshlardan anchagina ko`p. Ularning har biri bilan tanishib tahlil qilamiz:

B(p)-qo`sh lab tovush , nafassiz , portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilganda lablar yumilib,havo oqimi portlab chiqadi, tovush pardasi titramaydi. Masalan: bo, bai, bain, ba-ba bo`g`inlari.

C(ts')-til uchi tovushi-nafasli, jaransiz tovush. Talaffuz qilganda til uchi tepa tishlar milkiga yengil tegib, havo oqimi tor tirqishdan sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Masalan: <ca, ci, cao> kabilar.

D(t)-til uchi tovushi, nafassiz, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda, til uchi tepa tishning milkiga taqaladi. Og`iz bo`shlig`iga havo to`planadi. Til uchi pastlab havo oqimi portlab chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Masalan: <da, de, dang> kabilar.

F(f)-lab tish tovushi –sirg`aluvchi,jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda , yuqori tishlar pastki labga yaqinlashadi. Havo oqimi tish bilan lab orasida sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Xitoy tilida <<p f>> tovushlari ma`no (so`z ma`nosini) farqlashtirish xizmatiga ega. Ikkinchisi almashtirib ishlatib bo`lmaydi. Masalan: <fa, fu, fei> kabi bo`g`inlar.

G(k)-til oprqa nafassiz, portlovchi. Jarangsiz tovush. Tol orqasi yumshoq tanglayga taqalib birdaniga ayriladi. Havo oqimi portlab chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. <gei, gao, gang> kabi bo`g`inlar misolida ko`rishimiz mumkin.

H(x)-til orqa, sirg`aluvchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganida til orqasi ko`tarilib yumshoq tanglayga yaqinlashadi. Havo oqimi til orqasi bilan yumshoq tanglay hosil qilgan bo`shliqdan sirgalib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Misol uchun: <he, hei, han> va boshqalar.¹⁹

¹⁹ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.14-19.

J(t)-til usti ,nafassiz, portlovchi-sirg`aluvchi jarangsiz tovush. Bu tovush talaffuz qilinganida, til uchi pastki tish milkiga tegadi. Havo oqimi portlab, sirg`alib chiqadi, tovush pardasi titramaydi. <jiang, jin, jia> kabi bo`g`inlar.

K(k) til orqa, nafasli, portlovchi, jarangsiz tovush. Talaffuz qilinish o`rni <<g>>nikiga o`xshash. Havo oqimi og`iz bo`shlig`idan portlab, kuchli chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. <kai, kan, keng> kabi bo`g`inlar misolida ko`rishimiz mumkin.

P(p')qo`sh lab tovushi-nafasli, jarangsiz tovush. Tovush chiqarish o`rni bilan o`xshash, biroq havo kuchli portlab chiqadi. Odatda <nafasli> deyiladi tovush pardasi titramaydi. Masalan:<pai, pei, pou> va boshqalar.

Q(ts)-til usti, nafasli,portlovchi-sirg`aluvchi jarangsiz tovush. Talaffuz qilinishining o`rni <j>nikiga o`xshab ketadi biroq, havo kuchli chiqadi.<qia, qiao, qian> kabi misollarda ko`rishimiz mumkin.²⁰

S(s)- til uchi oldi sirg`aluvchi, jarangsiz tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda til uchi tepa tishning orqasiga yaqinlashadi, u yerda tor tirkish hosil bo`ladi va havo oqimi shu yerdan sirg`alib chiqadi. Masalan: <se, sai, sao > va boshqalar.

T(t')-til uchi tovushi-nafasli portlovchi, jarangsiz tovush. Tovush chiqarish o`rni <d>nikiga o`xshab ketadi. Havo oqimi portlab chiqqanida nafasli bo`lishi kerak. Tovush pardasi titramaydi. Masalan: <tai, tou teng> kabilar.

X(c')til usti, sirg`aluvchi, jarangsiz tovush, bu tovushni talaffuz qilganda til ustining oldingi qismi qattiq tanglayga yaqinlashib, til uchi pastki tishlarga tegadi, tor tirqish hosil qilib, havo oqimi shu tirqishdan sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Masalan: <xi, xue, xuan, xun, xin> va boshqalar.

Y(y) til uchi orqa, sirg`aluvchi, jarangli tovush. Buni talaffuz qilish o`rni <sh>nikiga o`xshash. Tovush pardasi titraydi.<y> tovushini talaffuz qilganda **til** uchini titratish mumkin emas.

²⁰ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.23.

Z(ts) til uchi oldi, nafassiz portlovchi-sirg`aluvchi, jarangsiz tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda, til uchi tepa tishning milkiga teyib, undan ozgina ayrilib, havo oqimi tor tirqishdan sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Misol uchun: <zao, zan, zai> va boshqalar.

Zh(ts) til uchi orqa, nafassiz portlovchi-sirg`aluvchi tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda, til uchi qayrilib qattiq tanlayga tegadi, havo oqimi til uchi bilan qattiq tanglay orasidan portlab, sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Misol uchun: <zhi, zhai, zhao> va boshqalar.

CH(t)- til uchi orqa nafasli, sirg`aluvchi-portlovchi jarangsiz tovush. <ch>ning talaffuz qilinish o`rni <zh>nikiga o`xshash. Havo oqimi kuchli chiqadi. Misol uchun: <cha, chai, chan, > va boshqalar.

Sh-til uchi orqa sirg`aluvchi, jarangsiz tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda til uchi qaytarilib qattiq tanglayga yaqinlashadi. Havo oqimi til bilan qattiq tanglay orasidan sirg`alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi. Misol uchun: <shao, shai, shei> va boshqalar.²¹

Yuqorida biz putunhuadagi ya'ni zamonaviy xitoy adabiy tilidagi 21ta shenmularga umumiy ta'rif berib o`tdik. Endilikda ushbu shenmularni ma'lum bir guruhlarga bo`lib chiqamiz.

I. Tovush chiqarish o`rniga ko`ra:

1. Lab tovushlari p, m, f
2. Til uchi o`rtasi tovushlari: d, t, n, l
3. Til orqa tovushlari: g, k, h
4. Til usti tovushlari: j, q, x
5. Til uchi orqa tovushlari: zh, ch, sh, y, r, z
6. Til uchi oldi tovushlari: z, c, s

II. Jarangli va jarangsiz tovushlar:

²¹ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya", - B.12-19.

1. Jarangli tovushlar: m, n, l, r.
2. Jarangsiz tovushlar: b, p, f, d, t, g, k, h, j, q, x, ch, sh, z, c, s.²²

Bundan tashqari undosh tovushlarni biz sirg`aluvchi va portlovchi, portlovchi-sirg`aluvchi guruhlariga ham bolishimiz mumkin.²³ Quyidagi jadvalda shunmularning tovush chiqarish o`rniga ko`ra turlari:

Tovu sh Chiqarish Usuli Tov- Ushla r Chiqa rish O`rni	Portlov- Chi		Portlive hi- Sirg`alu vchi		D imoq	Sirg`aluvc hi		To mon
	Jarangsi z		Jarangsi z		J arangl i	J arangl i	J arangs iz	Jar angli
	N afas- siz	N afasli	N afas- siz	N afasli				
Qo`sh lab tovushlari	b	p			m			
Lab- tish tovushlari								
Til uchi oldi tovushlari			z	c		s		
Til uchi ortasi tovushlari	d	t			n			L

²² A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.44.

²³ O`sha manba.-B.45.

Til uchi orqa tovushlari			z h	c h		s h	r	
Til usti tovushlari			j	q		x		
Til orti tovushlari	g	K				h		

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, nutq eshitalishi bo`yicha, fonetik jihatdan, kichikroq birliklarga bo`linadi, ularni biz bo`g`inlar deb atadik. Bo`g`inlar o`z o`rnida, diqqat bilan tekshirilganida alohida tovushlarga ajratilishi mumkin.<sup>24</sup> Xitoy va o`zbek bo`g`inlari bir-birovidan katta farq qilmaydilar. O`zbek tili bo`g`inlarida birdan to`rttagacha tovush bo`lishi mumkin. Xitoy tilida ham bo`g`inlar birdan to`rttagacha tovush bo`lib, shu miqdordan oshmaydi. Xitoy tilida bog`inlar tarkibiga kirivchi har hil tovushlar ma`lum bir tartibda joylashmaydilar. Masalan bir-necha undosh tovushlar ketma-ket kelishi mumkin emas, biroq unlilarni o`zaro birikib kelishi mumkin. To`liq tarkibli xitoy bo`ginida birinchi o`rinda hamisha undosh (shenmu) turadi. Tovush birikmalarini o`rganish jarayonida ma`lum bosqichda unlilarni kombinator va pazitsion ottenkalari (tus) tushunchasini kiritish kerak bo`ladi Masalan: [a] unlisi [n] til oldi undoshi oldidan kelganida o`zi ham til oldi [a]ga aylanadi, [ng] til orqa tovushidan oldin esa til orqa [a]ga aylanadi. Lingvistik faktlardan hamda xitoy tilshunosligi an`analaridan kelib chiqadiki, xitoy tili bo`g`ini tuzilish jihatidan initsial (bo`g`ining oldi qismi) va final (bo`g`ining qolgan qismi)laridan iborat. Ular shenmu va yunmulardir²⁵. Xitoy tili fonetikasida unlilar yunmu, undoshlar shenmu deb ataladi. Ularning soni 21 ta shenmu 39ta yunmudan iborat. Shenmular :

²⁴ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent: "Fan va Tehnologiya",.- B.126.

²⁵ O`sha manba.-B.-128.

I. Tovush chiqarish o`rniga ko`ra:

1.Lab tovushlari p, m, f

2.Til uchi o`rtasi tovushlari: d, t, n, l

3.Til orqa tovushlari: g, k, h

4.Til usti tovushlari: j, q, x

5.Til uchi orqa tovushlari: zh, ch, sh, y, r, z

6.Til uchi oldi tovushlari: z, c, s

II.Jarangli va jarangsiz tovushlar:

1.Jarangli tovushlar:m, n, r.

2.Jarangsiz tovushlar: : b, p, f, d, t,g, k, h, j, q, x,ch, sh, z, c, s. kabi guruhlarga bo`linadi.

II.Bob. Hozirgi o`zbek adabiy tili undoshlari

Biz ushbu bobda hozirgi o`zbek adabiy tilida undoshlar tasnifini ko`rib chiqdik va o`zbek xitoy tillaridagi undoshlarning o`xshashliklari va farqli jihatlarini o`rgandik.

2.1 Hozirgi o`zbek adabiy tilida undoshlar tasnifi

**Hozirgi o`zbek adabiy tili: O zbek tili** (O`zbekcha yoki O`zbek Turkchasi) — Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi.

Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtiril

O`zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o`z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo`lgan davr. Bu davrdagi til fanda **qadimgi turkiy til** deb yuritiladi. Qadimgi xalq og`zaki ijodi namunalari, O`rxun-Enasoy yodgorliklari (VI—VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI—XIV asrlarda amalda bo`lgan til **eski turkiy til** deb ataladi. Mahmud Qoshg`ariyning „Devonu-lug`atit-turk“ („Turk tillari devoni“), Yusuf Xos Hojibning „Qutadg`ug bilig („Saodatga yo`llovchi bilim“), Ahma Yugnakiyning „Hibatul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug`oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnoma“, Rabg`uziyning „Qissai Rabg`uziy“ asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo`llangan til **eski o`zbek adabiy tili** deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, SayfiSaroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko`plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til **hozirgi o`zbek adabiy tili** deb ataladi. „Turkiston viloyati gazetisi“ nashr qilina

boshlagan vaqtdan (1870-yildan) eʼtiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi oʻzbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

Oʻzbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski oʻzbek adabiy tili shakllanib boʻldi.²⁶

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida 6ta unli 24 undosh tovushlar bor.

UNLI TOVUSHLAR TIZIMI:

Unli tovushlarning hosil boʻlishida oʻpkadan chiqayotgan havo oqimi ogʻiz boʻshligʻida hech qanday toʻsiqqa uchramaydi, ya'ni sof ovozdan tashkil topadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida oltita unli tovush bor:<< i, e, a, o, u, oʻ>>. Unli tovushlar kirill yozuvida oʻnta harf bilan ifodalangan:<< и, е, э, а, о, у, у, 'е', ю, я>>. Demak, unlilar tovush sifatida oltita, yozuvda esa oʻnta belgi orqali berilar edi. Unlilarda a bilan o ni, u bilan o` ni aralashtirmaslik, olinma soʻzlarda qoʻsh unlilarning ishlatilishini yaxshi oʻzlashtirib olish zarur.

UNLILAR TASNIFI

1. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra.

a) Til oldi: a, e, i

b) Til orqa: o, oʻ, u

2. Hosil boʻlish usuliga koʻra

1) quyi keng: a, o

2) oʻrta keng: e, oʻ

3) yuqori tor: i, u

3. Lablarning ishtirokiga koʻra

1) lablanmagan: a, e, i

²⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Oʻzbek_tili

2) lablangan: o, o', u

4. Qisqa va cho'zqligiga ko'ra.

1) qisqa: a, i,

2) cho'ziq: o, e, o'²⁷

Hosil bo'lish o'rniga	Hosil bo'lish usuliga ko'ra	Lablarning ishtirokiga ko'ra	Qisqa va cho'zqligiga ko'ra
Til oldi: a, e, i	quyi keng: a, o	lablanmagan: a, e, i	qisqa: a, i, u
Til orqa: o, o', u	o'rta keng: e, o'	lablangan: o, o', u	cho'ziq: o, e, o
	yuqori tor: i, u		

Undosh tovushlar tasnifi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush bor: *b, v, g, d, j* (joy so'zidagi kabi) *j* (*j*: jurnal so'zidagi kabi) *z, y, k, l, m, n, ng* (tong so'zidagi kabi) *p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h*. Undosh tovushlar un paychalarining harakati (taranglashish) holatiga va og'iz bo'shlig'ining qayerida to'siqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo'lishi yoki ovozning shovqinidan ustunligiga qarab bir-biridan farqlanadi va shunga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: 1) hosil bo'lish (artikulyatsiya) o'rniga ko'ra; 2) hosil bo'lish (artikulyatsiya) usuliga ko'ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra; 4) tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra.

²⁷ S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent., 2001.-B.17-18

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar uch asosiy guruhga bo'linadi: 1) lab undoshlari; 2) til undoshlari; 3) bo'g'iz undoshi.

1. Lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga *b, p, m, v, f* undoshlari kiradi. Bu undoshlarning hosil qilishda lablar bir-biriga jipslashadi. Ba'zilar talaffuzida esa yuqori lab pastki tishlar bilan jipslashadi. Shunga ko'ra, lab undoshlari, o'z navbatida, 2 guruhni tashkil etadi: 1) lab-lab undoshlar: *b, p, m, v, f* (kuyov, pufak so'zlarida); 2) lab-tish undoshlari: *v, f* (vazifa, fursat kabi o'zlashma so'zlarda uchraydi).

Til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: *g, d, j* (vijdon so'zidagi kabi) *j*, (jo'ja so'zidagi kabi) *z, y, k, l, n, ng* (ong so'zidagi kabi) *r, s, t, x, ch, sh, q, g'* (jami 18 ta).

Bu undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Masalan *d, j, n* undoshlari tilning old qismi bilan tish va milklar orasida; *k, g* kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan yuqori tanglay o'rtasida; *y* undoshi tilning o'rta qismi bilan yuqori tanglay o'rtasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari quyidagi 4 guruhga bo'linadi: ²⁸

1) til oldi undoshlari: *d, j, z, l, n, r, s, t, ch, sh*

2) til o'rta undoshi: *y*

3) til orqa undoshlari: *k, g, ng* (jang so'zidagi kabi)

4) chuqur til orqa undoshlari: *q, g', x*.

3. Bo'g'iz undoshi bitta *h* tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari o'rtasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi.

²⁸ S.Rahimov. A.Eshonqulova.-Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent.,2001.-B.15.

Hosil bo`lish usuliga ko`ra undoshlar uch guruhga bo`linadi: 1) portlovchilar; 2) sirg`aluvchilar; 3) portlovchi-sirg`aluvchilar.

1. Portlovchi undoshlar hosil bo`lishda havo oqimining portlash va portlash bilan bir qatorda qisman sirg`alishi kuzatish mumkin. Maslan: *b, p* undoshlari hosil bo`lishda havo oqimi ikki lab vositasida hosil qilingan to`siqqa ma`lum zarb bilan urilib portlashidan vujudga kelsa, *ch, j* undoshlarining hosil bo`lishida havo oqimi portlash bilan bir qatorda qisman sirg`alishni ham sezish mumkin. Shuning uchun ham portlovchi undoshlar hosil bo`lishdagi to`liq va to`la bo`lmagan portlashni e`tiborga olgan holda ularni quyidagi 2 guruhga ajratish mumkin:

1) sof portlovchilar: *b, g, d, k, t, q*;

2) qorishiq (affrikat) portlovchilar: *ch (tch), j (dj)*.

**2. Sirg`aluvchi undoshlar** ikki nutq a`zosining o`zaro yaqinlashish va havo oqimining ana shu nutq a`zolari tor oralig`idan sirg`alib o`tish orqali hosil bo`ladi. Masalan, havo oqimining ikki lab tor oralig`idan sirg`alib o`tishi orqali *v, f* undoshlari; til bilan yuqori milk oralig`idan oqimining sirg`alib o`tishi orqali *j* (jurnal) *z, s, sh* undoshlari; tilning o`rta qismi va yuqori tanglay oralig`idan sirg`alib o`tishi orqali *y* undoshi; tilning orqa qismi va yuqori tanglayning orqa qismi oralig`idan sirg`alib o`tishi orqali *g`, x*; bo`g`izdagi un paychalari orasidan sirg`alib o`tishi orqali *h* undoshining hosil bo`lishi shular jumlasidandir. Demak, sirg`aluvchi undoshlar tilimizda jami 10 ta bo`lib, ular quyidagilardan iborat: *v, f, j, z, y, s, x, sh, g`, h*.²⁹

**3. Portlovchi - sirg`aluvchi undoshlar** bir vaqtning o`zida ham portlash, ham sirg`alish jarayonining ro`y berish natijasida hosil bo`ladi. Ularga *m, n, ng, l, r* kabi undoshlar kiradi.

Portlovchi-sirg`aluvchi undoshlarning hosil bo`lish usullari boshqa undoshlarga nisbatan o`zgachadir. Xususan, *m* undoshining hosil bo`lishida o`pkadan chiqadigan havo oqimining bir qismi og`iz bo`shlig`ida lablarning to`squinligiga uchrab portlaydi va havo oqimining qolgan qismi burun bo`shlig`idan sirg`alib chiqadi; *n* undoshining hosil bo`lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib

²⁹ S.Rahimov. A.Eshonqulova.-Hozirgi o`zbek adabiy tili.-Toshkent,2001.-B.15-16.

yarim portlaydi hamda havo oqimining qolgan qismi burun bo`shlig`idan sirg`alib chiqadi; *ng* (*ng*) undoshi tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va bir qism havoning burun bo`shlig`idan sirg`alib chiqishi orqali vujudga keladi. Ko`rinadiki *m*, *n*, *ng* undoshlari talaffuz qilinganda havo oqimining bir qismi burun bo`shlig`idan sirg`alib chiqadi. Shunga ko`ra, bu undoshlar **burun tovushlari** deb ham yuritiladi. L undoshini hosil qilishda til uchi yuqori tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg`alib o`tishi, uning og`iz bo`shlig`idan qisman portlab, qisman sirg`alib chiqishiga sabab bo`ladi, shuning uchun l undoshi **yon tovush** deb yuritiladi. R undoshini hosil qilishda o`pkadan chiqadigan havo to`lqini tilning o`ziga zarb bilan uriladi va uni titratadi. Tilning titrab turishi esa havo oqimining og`iz bo`shlig`idan portlab-sirg`alib chiqishiga olib keladi. Shu tufayli *r* undoshi **titroq tovush** deb yuritiladi.

**Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra** undoshlar ikkiga bo`linadi: 1) sonorlar; 2) shovqinlilar.

O`zbek tilida sonorlar beshta bo`lib *m*, *n*, *ng*, *l*, *r* kabi undoshlarni o`z ichiga oladi. Sonor (lotincha so`z bo`lib, "ovozdor" demakdir) undoshlarni talaffuz qilganimizda, un paychalari faol ishtirok etadi, ya'ni un paychalari titrab ovoz hosil qiladi. Shuning uchun ham sonorlarda ovoz miqdori shovqinli undoshlarga nisbatan ko`proq bo`ladi. Ana shu jihatiga ko`ra sonorlar unli tovushlarga bir qadar yaqin turadi, lekin ularni talaffuz qilishda ovoz og`iz bo`shlig`ida qisman shovqin bilan aralashadi. Shu sababli sonorlar undosh tovushlar qatoriga qo`shiladi. Qolgan undoshlarning barchasi shovqinlilardir.

**Tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra** undoshlar ikkiga bo`linadi: 1)

jaranglilar: *b*, *v*, *z*, *d*, *j*, *ch*, *g*, *g`*, *y*, *m*, *r*, *l*, *ng*; 2) jarangsizlar: *p*, *f*, *s*, *t*, *sh*, *ch*, *k*, *x*, *k*, *h*.

Undoshlarni jarangli va jarangsizlarga ajratishning sababi shundaki, jarangli undoshlarni talaffuz etishda un paychalari tarang tortilgan holda faol ishtirok etadi. Shu bois jaranglilar tarkibida shovqin bilan bir qatorda ovoz ham qatnashadi. Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilganda esa, un paychalari ishtirok etmaydi.

Shuning uchun jarangsizlar faqat shovqindan iborat bo`ladi. Jarangli va jarangsiz undoshlardan quyidagilar hosil bo`lishi o`rniga ko`ra juftlik tashkil qiladi: *b, v, z, d, j, ch, g, g`, p, f, s, t, sh, ch, k, x*.

O`zbek tilidagi *y, m, n, r, l, ng* undoshlari jarangsiz juftga, *q, h* kabi jarangsiz undoshlar esa jarangli juftga ega emas.³⁰

O`zbek tilida undoshlar klassifikatsiyasi:

Hosil bo`lish o`rniga ko`ra				
Lab undoshlari	Til undoshlari			
b, p, m, f (lab-tish)	Til oldi	Til o`rta	Til orqa	Bo`g`iz
	d, t, z, s, j, sh, n, l, r, ch.	Y	g, k, ng, q, g`, x	H

³⁰ S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent., 2001.-B.17-18.

Ovoz va shovqunining ishtirokiga ko`ra		
Sanorlar	Shovqunlilar	
	Jarangli	Jarangsiz
m, n, ng, l, r	b, v, d, z, j, g, g`, y	p, f, t, s, sh, k, ch, x, h, q.

Hosil bo`lish usuliga ko`ra		
Portlovchi	Sirg`aluvchi	Qorshiq
b, p, m, g, k, q	s, j, sh, y, x, g`, h	ch (t+sh), j (d+j), s (t+s)

2.2 Xitoy va o`zbek tillarida undosh tovushlar , ularning farqi va o`xshashliklari.

Biz yuqorida ikkala tillarnig tarixi kelib chiqishi va unli va undosh tovushlarining xususiy jihatlarini ko`rib chiqdik. U shbu bo`limda xitoy va o`zbek tillarida undosh tovushlarini qiyosiy tahlil qildik. Undoshlarning har birini ikkala til uchun ko`rib chiqdik.

-tovushi ikki tilda ham tovush chiqarish o`rniga ko`ra bir hildir. Ovoz va shovqin ishtirokiga ko`ra ham portlovchi, jarangsiz faqatgina xitoy tilida nafassiz talaffuz qilinadi. O`zbek va xitoy tillarida bir hil aytiladi. Masalan: o`zbek tilida <bor> xitoy tilida <bian>. O`zbek tilida undoshlarni tahlil qilganimizda nafasli yoki nafassiz talaffuz qilish kuzatilmadi.

<d>-tovushi hosil bo`lish o`rniga ko`ra xitoy tilida til uchi orqa, o`zbek tilida til oldi undosh tovushi xisoblanadi. Ovoz va shovqin ishtirokiga ko`ra xitoy tilida nafassiz, jarangli, sirg`aluvchi-portlovchi. O`zbek tilida esa, sof portlovchi, jarangli undosh tovushdir. Ikki tilda ham talaffuz qilganda bir hil eshitiladi. Masalan <dumoloq>; <dain>.

<f>- tovushi ikki tilda ham hosil bo`lish o`rniga ko`ra lab undoshi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko`ra jarangsiz va sirg`aluvchi tovush. Talaffuz qilganda bir hil talaffuz qilinadi ya`ni <f> masalan: <foyda>; <fan> bog`inlari.

<g>-tovushi ikki tilda ham hosil bo`lish o`rniga ko`ra bir hil til orqa tovushi. Ammo ovoz va shovqin ishtirokiga ko`ra xitoy tilida jarangsiz, o`zbek tilida jarangli undosh. Hosil bo`lish usuliga ko`ra xitoy tilda portlovchi, nafassiz tovush. O`zbek tilida esa sof portlovchi undosh tovush. Ikki tilda ham <g> tovushini talaffuz qilinganda bir hil eshitiladi. Masalan <go`zal>; <guo> bo`g`inlari.

<h>-tovushi. Ushbu undoshda bir necha farqliklar mavjud. Xitoy tilida ushbu tovush hosil bo`lish o`rniga ko`ra til orqa; hosil bo`lish usuliga ko`ra sirg`aluvchi jarangsiz tovush. Talaffuz qilinganda <h> ya`ni <hua>, <hong> oddiygina h

tovushini beradi. O'zbek tilida ushbu tovush bo'g'iz tovushi deb ataladi. Chunki bu tovushni talaffuz qilganimizda bo'g'izimizda hosil bo'ladi. Uni yumshoq va yengil talaffuz qilamiz. Shuning uchun hosil bo'lish o'rniga ko'ra bo'g'iz tovushi; hosil bo'lish usuliga ko'ra jarangsiz tovush. <hayol>, <goh> bo'g'inlari misol bo'la oladi.

<j>-tovushi ikki tilda ham hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi tovush xisoblanadi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra esa xitoy tilida nafassiz, jarangsiz, portlovchi-sirg'aluvchi tovush. O'zbek tilida qorishiq sirg'aluvchi jarangli tovush. Xitoy tilida talaffuz qilganimizda <j> tovushi eshitiladi masalan:<jia>, <jiang> kabilar. O'zbek tilida esa biroz farqliroq <j> undoshini ikki hil talaffuz qilinadi. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda <dj> ya'ni <jurnal> bog'inida <dj> tovushi talaffuz qillinadi. <jo'ja>, <jo'hori> so'zlarida <j> tovushi talaffuz qilinadi.

<k>-tovushi. Xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orti tovushi bo'lib, jarangsiz portlovchi undoshdir. O'zbek tilida esa sof portlovchi, jarangsiz tovush. Ikki tilda ham bir hil talaffuz qilinadi. Masalan <kan>, <kou>; <ko'k>, <ko'z> bo'g'inlari.

<l>-tovushi. Ushbu tovushda farqli jihatlari xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til uchi o'rtasi, hosil bo'lish usuliga ko'ra tomon undoshi. Jarangli undosh. Ozbek tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi-sirg'aluvchi tovush. Va yana ushbu tovushni yon undosh ham deb ataladi. Ikki tilde ham bir hil talaffuz qilinadi. Masalan , <lia>; <lola>, <lozim> so'z va bo'g'inlari kabi.

<m>-tovushi xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab undosh bo'lib, hosil bo'lish usuliga ko'ra dimoq yoki burun undosh deyiladi. Jarangli undosh. O'zbek tilida ham xuddi shunday bo'lib faqatgina hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi sirg'aluvchi sonor undosh xisoblanadi. Ikki tilde ham bir hil talaffuz qilinadi. Masalan <ma>, <meng>; <munozora>, <mulk> kabilar.

<n>-tovushi xitoy va o'zbek tillarida hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir hil burun yoki dimoq tovushi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra esa xitoy tilida jarangli tovush. O'zbek tilida portlovchi-sirg'aluvchi sonor tovush. Ikki tilde ham tallafuz bir hil qilinadi. Masalan <niu>, <nian>; <non>, <noma> va boshqalar.

<p>-tovushi ikki tilde ham deyarli bir hil faqatgina xitoy tilida talaffuz jarayonida nafassiz talaffuz qilinadi. Boshqa hech qanday o'zgarish va farqli jihatlar kuzatilmaydi. Masalan: <popo>, <pai>; <poliz>, <pohol>.

<q>-tovushi xitoy tilida hosil bo'lish usuliga ko'ra til usti undoshi. Hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi sirg'aluvchi jarangsiz tovush. O'zbek tilda hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqa

Xitoy tilida <q> undoshini talaffuz qilganimizda o'zbek tilidagi <ch> tovushiga o'xshash talaffuz qilinadi. Bu undosh ko'proq <i, ia, ioa, ie, iou, ian, in, iang, ing, iong> yunmulari bilan birgalikda keladi. Masalan:<qi>, <qia>, <qiang> kabilar.

O'zbek tilida esa <q> tovushini beradi masalan: <qog'oz>, <qozon> kabi so'zlarda <q> talaffuz qilinadi. Ushbu undosh xitoy tilida mavjud emas. Ya'ni <q> bermaydi. Xitoy tilida <t>yoki <ch>.

<s>-tovushi xitoy tilida hosil bo'lish usuliga ko'ra jarangsiz, sirg'aluvchi tovush. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra til uchi oldi undoshi. O'zbek tilida esa hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqa, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi portlovchi undosh tovush. Ikki tilda ham bir hil talaffuz qilinadi. Masalan: <si>, <sou>; <sog'>, <so-ha> kabilar.

<t>- tovushi xitoy tilida hosil bo'lish usuliga ko'ra til uchi o'rtasi, hosil bo'lish usuliga ko'ra nafasli jarangsiz, portlovchi undosh tovushdir. O'zbek tilida ham til orqa, jarangsiz, portlovchi tovush xisoblanadi. Ikki tilde ham bir hil talaffuz qilinadi. <tan>, <ta>; <tong>, <tom> kabi bo'g'inlar.

<x>- undoshi bir necha farqli jihatlariga ega: xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til usti, hosil bo'lish usuliga ko'ra esa, jarangli, sirg'aluvchi. O'zbek tilida esa hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqa, hosil bo'lish usuliga ko'ra sig'aluvchi, jarangsiz tovush. Ikki tilda har hil talaffuz qilinadi. Xitoy tilida <x> o'zbek tilidagi <s> undoshiga o'xshash holda boladi, ya'ni o'zbek tilidagi x tovushidek emas. O'zbek tilda <x> undoshi qattiqroq talaffuz qilinadi. <xo'roz>, <xitoy> kabi so'zlar. Xitoy tilida <xia>, <xiao> kabilar. <X> undoshi ko'p holatlarda <I, ia, iao, ie, iou, ian, in, iang, ing, iong> yunmular bilan birgalikda keladi.

<z>-tovushi ikki tilda ham hosil bo'lish o'rniga ko'ra til odli, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi-sirg'alivchi, jarangsiz undosh. Ikki tilda ham deyarli bir hil talaffuz qilinadi. Masalan: <zao>, <zai>; <zangori>, <zar-g'al-doq> kabilar,

<ch>-qo'sh-undoshi xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til uchi orqa, hosil bo'lish usuliga ko'ra nafassiz jarangsiz, portlovchi-sirg'aluvchi tovush. O'zbek tilda hosil bo'lish usuliga ko'ra til oldi, qoroshiq, portlovchi, jarangsiz tovush. Ikki tilda ham deyarli bir hil talaffuz etiladi. <cha>, <chuang>; <cha-man>, <cha-la>.

<sh>-undoshi xitoy tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til uchi orqa, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi, jarangsiz tovush. O'zbek tilida hosil bo'lish o'rniga ko'ra til oldi, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi jarangsiz tovush. Ikki tilda ham bir hil talaffuz qilinadi. Masalan: <shi>, <shan>; <sha-mol>, <sha-bo-da> kabi so'z va bo'g'inlarda.

Yuqorida o'zbek va xitoy tillarida bor bo'lgan undosh tovushlarning farqini ko'rdik. Endilikda xitoy tilida mavjud bo'lib o'zbek tilida b o'lmagan undosh tovushlarni korib chiqamiz.

Xitoy tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq:<c zh w y> undoshlari mavjud. Ular o'zbek tilida mavjud emas.

<c> C(ts')-til uchi tovushi-nafasli, jaransiz tovush. Talaffuz qilganda til uchi tepa tishlar milkiga yengil tegib, havo oqimi tor tirqishdan sirg'alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi.

<zh> Zh(ts) til uchi orqa, nafassiz portlovchi-sirg'aluvchi tovush. Bu tovushni talaffuz qilganda til uchi qayrilib qattiq tanlayga tegadi, havo oqimi til uchi bilan qattiq tanglay orasidan portlab, sirg'alib chiqadi. Tovush pardasi titramaydi.

Xitoy tilida <y w> tovushlari bo'g'in ajratish vaifasini bajaradi. Masalan <dei> bo'g'iniga <y>ni qo'shib ishlatinmasa, u bir bo'gin sifatida qabul qilinadi. <y>ning qo'yilishi bilsn bo'g'inlar o'rtasidagi farqni ajratish mumkin.³¹ Bundan tashqari, <y>va <w>larni yarim unli tovushlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. [i], [u], [y] unli tovushlarni talaffuz qilganda til nisbatan yuqori ko'tariladi va sirg'alish yuz beradi. Ana shu tarzda yarim unli tovushlar, ya'ni ,< j, w, q> lar hosil bo'ladi. Xitoy tilidagi <i, u, u> tovushlari yoki ushbu tovushlar bilan boshlanadigan bo'g'inlar sirg'alish asosida talaffuz qilinganligi sababli ulardan oldin <y, w> tovushlari qoshilib yoziladi. Bu bilan talaffuz yanada aniqlashadi.

Endi esa o'zbek tilida mavjud bo'lgan xitoy tilida mavjud bo'lmagan undosh tovushlarni ko'rib chiqsak. Bular: v, g, 'y, ng undosh tovushlari.

<v>-tovushi hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab undoshi bo'lib, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush. Masalan: <varrak>, <vijdon> so'zlari.

<y>-tovushi hosil bo'lish o'rniga ko'ra til o'rta undosh tovush. Hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi, jarangli tovush. Masalan: <yorqin>, <yulduz> so'zlari. <y> undosh tovushi xitoy tilida ham mavjud bo'lib u faqatgina bo'g'inlarni ajratish uchun qo'llaniladi.

<g>- tovushi hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqa , hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi jarangli tovush. Masalan: <g'arib>, <g'or> kabilar.

<Ng>- qo'sh undosh hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqa, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi sirg'aluvchi (burun) jarangli tovush. Masalan: <tong>, <shudiring> kabilar.

³¹ Hua Lin. A grammer of Mandarin Chinese.Europe."Lin Com".-p.25.

O'zbek tili talaffuz jarayonida harflar almashunuvi kuzatiladi. Masalan <kitob> so'zida undoshi og'zaki nutqda <p> undoshiga almashinib, <kitop> deb eshitalishi mumkin. Bu esa hech qanday ma'no o'zgartirmaydi³². Lekin xitoy tilida bu hodisa sodir bo'lsa aytilayotgan so'z ma'nosi ham o'zi ham o'zgaradi. Bu hodisa <p, f> undoshlari kuzatilishi mumkin.³³ Masalan : < bo-po>, <ba-pa> boshqa boshqa bo'g'inlarni anglatadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, xitoy tili ohangdor til bo'lib, unda bir hil bo'g'in turli hil ohangda turli hil ma'no beradi.

³² S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent., 2001.- B.20.

³³ A.Karimov. Xitoy tili grammatikasi. Toshkent:"Fanva Tehnologiya",2005.-B.12.

Xitoy tilidagi undoshlar	O'zbek tilidagi undoshlar
undoshlar jami soni: 21 ta (shenmu) O'zbek tilida mavjud bo'lmagan undoshlar: c, w, zh. Xitoy tilida wva y undoshlari bo'g'in ajratish uchun xizmat qiladi. <x, h, q> undoshlari o'zbek tilidek talaffuz qilinmaydi. Hosil bo'lish o'rnini va usuli barchasi turli hil. <h> hosil bo'lish o'rniga ko'ra til orqali, hosil bo'lish usuliga ko'ra sirg'aluvchi jarangsiz. Xitoy tilida sanorlar mavjud emas. Xitoy tili talaffuzi jarayonida nafasli va nafassiz tovushlar mavjud. <ng> xitoy tilida unlilar bilan birgalikda keilib, qo'shma yunmu va burun yunmularini tashkil etadi. Masalan: <ong, iong>. <er> qo'shma yunmu til qayrilgan yunmu. Xitoy tilida tovush almashinish hodisasi yuz bersada so'z ham bo'g'in ham ma'no ham o'zgaradi. Shuningdek, ohangda ham bir hil bo'g'inli so'zlar turli hil o'qilib, ma'nosi ham turlichadir. Qo'sh undoshlar: sh, ch, zh,	Undoshlar jami soni 24ta Xitoy tilida mavjud bo'lmagan undoshlar: g', y, v, ng. <y> undoshi o'zining mustaqilligiga ega. <x, h, q> talaffuz xitoy tilidan farqli. <h>- hosil bo'lish usuliga ko'ra bo'g'iz tovushi hosil bo'lish usuliga ko'ra jarangsiz. <m, n, ng> burun tovushlari, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra sanorlar. <ng> burun tovushi bo'lib akasariyat hollarda so'z yoki bo'g'in oxirida keladi va bu undosh tovush xisoblanadi. O'zbek tilida tovush almashinish hodisasi mavjud va bu deyarli ma'no o'zgartirmaydi. Qo'sh undoshlar: ch, sh, ng.

Ushbu bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Xitoy tilida va o'zbek tilidagi undoshlari soni turli hil ekanligi (xitoy tilida-21ta shenmu; o'zbek tilida 24ta undosh tovush.)

Ularning bir talay qismi deyarli bir hil talaffuz qilinadi.:<g, k, d, t, ch, sh, p, b, s, l, k, m, n, z>kabi undosh tovushlar.

<c, q, h, x, r, zh,w,y >kabi undoshlar zamonaviy putunhuada o'zbek tilidan farqli undosh tovushlar xisoblanadi.

O'zbek tilida <ng> burun tovushi bo'lib akasariyat hollarda so'z yoki bo'g'in oxirida keladi va bu undosh tovush xisoblanadi.

<ng> xitoy tilida unlilar bilan birgalikda keilib, qo'shma yunmu va burun yunmularini tashkil etadi.Masalan: <ong, iong>.

Xitoy tilida w va y undoshlari bo'g'in ajratish uchun xizmat qiladi.

O'zbek tilida esa ,<y> undoshi o'zining mustaqilligiga ega .

Xitoy tilida sanorlar mavjud emas. Xitoy tili talaffuzi jarayonida nafasli va nafassiz tovushlar mavjud.

O'zbek tilida tovush almashinish hodisasi mavjud va bu deyarli ma'no o'zgartirmaydi.

<er> qo'shma yunmu til qayrilgan yunmu.

Xitoy tilida tovush almashinish hodisasi yuz bersada so'z ham bo'g'in ham ma'no ham o'zgaradi. Shuningdek, ohangda ham bir hil bo'g'inli so'zlar turli hil o'qilib, ma'nosi ham turlichadir.

Xitoy tilida qo'sh undoshlar: sh, ch, zh,

O'zbek tilida qo'sh undoshlar:ch, sh, ng.

XULOSA

Biz bitiriv malakaviy ishimizda hozirgi zamonaviy xitoy tili hamda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi undoshlar bilan tanishib chiqdik. Ikki sharq tilidagi undoshlarning xususiyatlari, ularning tasnifi hamda farqli va o'xshash jihatlarini ko'rib chiqdik. Shu asnoda quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

Nutq eshitilishi bo'yicha, fonetik jihatdan, kichikroq birliklarga bo'linadi, ularni biz bo'g'inlar deb atadik. Bo'g'inlar o'z o'rnida, diqqat bilan tekshirilganida alohida tovushlarga ajratilishi mumkin. Xitoy va o'zbek bo'g'inlari bir-birovidan katta farq qilmaydilar. O'zbek tili bo'g'inlarida birdan to'rttagacha tovush bo'lishi mumkin. Xitoy tilida ham bo'g'inlar birdan to'rttagacha tovush bo'lib, shu miqdordan oshmaydi. Xitoy tilida bog'inlar tarkibiga kirivchi har hil tovushlar ma'lum bir tartibda joylashmaydilar. Masalan bir-necha undosh tovushlar ketma-ket kelishi mumkin emas, biroq unlilarni o'zaro birikib kelishi mumkin. To'liq tarkibli xitoy bo'ginida birinchi o'rinda hamisha undosh (shenmu) turadi. Tovush birikmalarini o'rganish jarayonida ma'lum bosqichda unlilarni kombinator va pazitsion ottenkalari (tus) tushunchasini kiritish kerak bo'ladi Masalan: [a] unlisi [n] til oldi undoshi oldidan kelganida o'zi ham til oldi [a]ga aylanadi, [ng] til orqa tovushidan oldin esa til orqa [a]ga aylanadi. Lingvistik faktlardan hamda xitoy tilshunosligi an'analaridan kelib chiqadiki, xitoy tili bo'g'ini tuzilish jihatidan initsial (bo'g'ining oldi qismi) va final (bo'g'ining qolgan qismi)laridan iborat. Ular shenmu va yunmulardir. Xitoy tili fonetikasida unlilar yunmu, undoshlar shenmu deb ataladi. Ularning soni 21 ta shenmu 39ta yunmudan iborat. Shenmular :

I. Tovush chiqarish o'rniga ko'ra:

1.Lab tovushlari p, m, f

2.Til uchi o'rtasi tovushlari: d, t, n, l

3.Til orqa tovushlari: g, k, h

4.Til usti tovushlari: j, q, x

5.Til uchi orqa tovushlari: zh, ch, sh, y, r, z

6.Til uchi oldi tovushlari: z, c, s

II.Jarangli va jarangsiz tovushlar:

1.Jarangli tovushlar:m, n, r.

2.Jarangsiz tovushlar: : b, p, f, d, t,g, k, h, j, q, x,ch, sh, z, c, s. kabi guruhlarga bo`linadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush bor: *b, v, g, d, j* (joy so`zidagi kabi) *j* (j: jurnal so`zidagi kabi) *z, y, k, l, m, n, ng* (tong so`zidagi kabi) *p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g`, h*.

Undosh tovushlar un paychalarining harakati (taranglashish) holatiga va og`iz bo`shlig`ining qayerida to`siqqa uchrashiga, faqat shovqindan iborat bo`lishi yoki ovozning shovqinidan ustunligiga qarab bir-biridan farqlanadi va shunga ko`ra quyidagicha tasniflanadi: 1) hosil bo`lish (artikulyatsiya) o`rniga ko`ra; 2) hosil bo`lish (artikulyatsiya) usuliga ko`ra; 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra; 4)tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra.

O`zbek tilida mavjud bo`lmagan undoshlar: c, w, zh.

Xitoy tilida wva y undoshlari bo`g`in ajratish uchun xizmat qiladi.

<x, h, q> undoshlari o`zbek tilidek talaffuz qilinmaydi. Hosil bo`lish o`rni va usuli barchasi turli hil.

<h> hosil bo`lish o`rniga ko`ra til orqa, hosil bo`lish usuliga ko`ra sirg`aluvchi jarangsiz.

Xitoy tilida sanorlar mavjud emas. Xitoy tili talaffuzi jarayonida nafasli va nafassiz tovushlar mavjud.

<ng> xitoy tilida unlilar bilan birgalikda kelib, qo`shma yunmu va burun yunmularini tashkil etadi. Masalan: <ong, iong>.

<er> qo`shma yunmu til qayrilgan yunmu.

Xitoy tilida tovush almashinish hodisasi yuz bersada, so`z ham bo`g`in ham ma`no ham o`zgaradi. Shuningdek, ohangda ham bir hil bo`g`inli so`zlar turli hil o`qilib, ma`nosi ham turlichadir.

Qo`sh undoshlar: sh, ch, zh,

Xitoy tilida mavjud bo`lmagan undoshlar: g`, y, v, ng.

<y> undoshi o`zining mustaqilligiga ega .

<x.h, q> talaffuz xitoy tilidan farqli.

<h>- hosil bo`lish usuliga ko`ra bo`g`iz tovushi hosil bo`lish usuliga ko`ra jarangsiz.

<m,n,ng> burun tovushlari, ovoz va shovqin ishtirokiga ko`ra sanorlar.

<ng> burun tovushi bo`lib akasariyat hollarda so`z yoki bo`g`in oxirida keladi va bu undosh tovush xisoblanadi.

O`zbek tilida tovush almashinish hodisasi mavjud va bu deyarli ma`no o`zgartirmaydi.

Qo`sh undoshlar: ch, sh, ng

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.-
Toshkent:"Ma'naviyat", 2008.-176 b.

Asosiy manbalar

- 3.Karimov A. Xitoy tili grammatikasi. "Fan va texnologiya".-T:2005.-156 b.
- 4.L.Sultonova, J. Ziyomuhamedov, M.Turatova. Xitoy tili
- 5.Hua Lin. A grammar of Mandarin Chinese Europe."Lin Com".2001.-201 p.
6. 实用现代汉语语法 北京 2004 年.
7. S.Rahimov, B.Umurqulov, A.Eshonqulova. Hozirgi o`zbek adabiy tili.
Toshkent., 2001.-210 b.
8. S.A.Hoshimova, S.A. Nosirova. Xitoy tili grammatikasi.Toshkent.2011.208
b.

Rus tilidagi adabiyotlar

- 9.Горелов В.И. Союзы в сложном предложении современного
китайского литературного языка. -М: 1958.-230. С.
- 10.Задоев Т.П., Хуан Шуин. Основы китайского языка. (Основной
курс) -М: Наука. 1986. Том 1.-720. С.
- 11.Задоев Т.П., Хуан Шуин. Основы китайского языка. (Основной
курс) -М: Наука. 1986. Том 2.-620. С.

Xitoy tilidagi adabiyotlar

- 12.何世达 现代汉语 北京 出版社 1986 年.- 520. 页
13. 汉语会话 301 句 北京语言出版社 2005 年-. 400. 页
14. 外国人实用汉语语法 北京 2009 年. -621.页

15. 实用现代汉语语法 北京 2003 年.- 422. 页
16. 汉语语法考察与分析 北京 2001 年.-450. 页
17. 语法点速记速练 北京语言大学出版社 2005 年.- 342. 页

Lug`atlar

18. Большой русско-китайский словарь. Пекин: Шанву иншугуан. 1993. - 1100.с.
19. Китайской – русский словарь. Сост. Фу Чонг. –Шанхай, 2004.-1250. с
20. Русско-узбекский словарь. -М: Государственное издательство иностранных и национальных словаре. 1954.-840.с
21. Русско-узбекский словарь. –Т.: “Ўқитувчи”. 1972.-456. с
22. Словарь иностранных языков. –М.: Русский язык. 1979.- 543. с
23. O`zbek tili izohli lug`ati. 1 tom. -M: Rus tili. 1981.-1200. b.
24. O`zbek tili izohli lug`ati. 2 tom. -M: Rus tili. 1981. -1321.b
25. 俄汉词典。 商务印书馆，上海，1992 年.- 1500. 页
26. 俄汉大辞典。 商务印书馆，北京，1999 年.-1300. 页
27. 常用修语 词典。 上海辞典出版社，1986 年.-1240. 页
28. 实用汉字词典。 北京，1989 年.-1543. 页
29. 现代汉语词典。 商务印书馆，北京，2002 年.-1500. 页
30. 俄汉大 词典。 商务印书馆，北京，2001 年.-1343. 页
31. 汉俄词典。 北京，2006 年.-1200. 页

Internet saytlar

32. [http:// www.esph.com.cn](http://www.esph.com.cn)
33. [http:// www.baidu.cn](http://www.baidu.cn)
34. [http:// www.youku.com](http://www.youku.com)

35. <http://www.dota-allstars.cn>

36. <http://www.filologia.su>